

# **BUXORO VOHASIDA TURISTIK XIZMATLAR BOZORINI RIVOJLANTIRISH OMILLARI VA ULARNING TASHKILIY-IQTISODIY SAMARADORLIGI.**

**Sulaymonova Malika Maxmudovna**

Buxoro davlat Universiteti Turizm va mehmondo'stlik yo'nalishi

1-kurs magistranti

**Annotatsiya.** Bugungi globallashuv sharoitida turizm sohasi jahon iqtisodiyotining eng jadal rivojlanayotgan tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Turizm nafaqat iqtisodiy foyda keltiradi, balki madaniy merosni asrash, hududlar infratuzilmasini rivojlantirish va aholi bandligini ta'minlashda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. O'zbekistonning qadimiy tarixiy hududlaridan biri bo'lgan Buxoro vohasi o'zining boy madaniy-tarixiy merosi, qulay geografik joylashuvi va noyob an'analari bilan turistik xizmatlar bozorini rivojlantirish uchun katta salohiyatga ega.

**Kalit so'zlar.** Turizm, geografik, UNESCO, Qizilqum cho'li, Quljuqto'v tizmasi, Ekoturist.

## **ФАКТОРЫ РАЗВИТИЯ РЫНКА ТУРИСТИЧЕСКИХ УСЛУГ В БУХАРСКОМ ОАЗИСЕ И ИХ ОРГАНИЗАЦИОННАЯ И ЭКОНОМИЧЕСКАЯ ЭФФЕКТИВНОСТЬ.**

**Сулеймонова Малика Махмудовна**

Бухарский государственный университет, факультет туризма и  
гостиничного бизнеса 1 курс магистратуры

**Аннотация.** В условиях современной глобализации туристическая индустрия является одним из наиболее быстро развивающихся секторов мировой экономики. Туризм не только приносит экономические выгоды, но и играет важную роль в сохранении культурного наследия, развитии региональной инфраструктуры и обеспечении занятости. Бухарский оазис, один из древнейших исторических регионов Узбекистана, обладает огромным потенциалом для развития рынка туристических услуг благодаря своему

богатому культурно-историческому наследию, выгодному географическому положению и уникальным традициям.

**Ключевые слова.** Туризм, география, ЮНЕСКО, пустыня Кызылкум, хребет Кульюктов, экотуризм.

## **FACTORS OF TOURISM SERVICES MARKET DEVELOPMENT IN THE BUKHARA OASIS AND THEIR ORGANIZATIONAL AND ECONOMIC EFFICIENCY.**

**Suleimanova Malika Makhmudovna**

Bukhara State University, Faculty of Tourism and Hotel Business, 1st-year  
Master's student

**Abstract.** In today's globalized world, the tourism industry is one of the fastest-growing sectors of the global economy. Tourism not only generates economic benefits but also plays a vital role in preserving cultural heritage, developing regional infrastructure, and providing employment. The Bukhara oasis, one of the most ancient historical regions of Uzbekistan, has enormous potential for developing the tourism market thanks to its rich cultural and historical heritage, favorable geographic location, and unique traditions.

**Keywords.** Tourism, geography, UNESCO, Kyzylkum Desert, Kulyuktov Range, ecotourism.

Buxoro vohasi Markaziy Osiyodagi eng qadimiy madaniyat o'choqlaridan biri bo'lib, Buyuk Ipak yo'li chorrahasida joylashgan. Hududda 300 dan ortiq tarixiy-me'moriy yodgorliklar mavjud bo'lib, ularning aksariyati UNESCO Jahon madaniy merosi ro'yxatiga kiritilgan. Ark qal'asi, Po'i-Kalon majmuasi, Lyabi-Hovuz, Mir Arab madrasasi kabi obidalar xalqaro va mahalliy sayyohlar uchun katta qiziqish uyg'otadi. Shuningdek, Buxoro vohasida milliy hunarmandchilik, an'anaviy oshxona, diniy ziyorat maskanlari va milliy urf-odatlar turizmni rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi. Ushbu resurslardan samarali foydalanish turistik xizmatlar bozorining kengayishiga olib keladi. Turistik xizmatlar bozorini rivojlantirish omillari:

**Tarixiy-madaniy omillar** - Buxoro vohasining asosiy ustunligi — uning boy tarixiy-madaniy merosidir. Qadimiy obidalar, masjid va madrasalar, maqbaralar turizmning madaniy, ziyorat va ilmiy yo‘nalishlarini rivojlantirish imkonini beradi. Tarixiy obyektlarni restavratsiya qilish, ularni zamonaviy talablarga mos tarzda saqlash va targ‘ib etish turistik xizmatlar bozorining kengayishiga xizmat qiladi.

**Davlat siyosati va huquqiy omillar** - So‘nggi yillarda O‘zbekistonda turizm sohasini rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Vizani soddalashtirish, turistik zonalar tashkil etish, tadbirkorlarga imtiyozlar berilishi Buxoro vohasida turistik xizmatlar bozorining faollashuviga ijobiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Davlat tomonidan qabul qilinayotgan dasturlar va qarorlar turizm infratuzilmasini rivojlantirish uchun muhim huquqiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

**Infratuzilma omillari** - Turistik xizmatlar bozorining rivoji bevosita infratuzilma holatiga bog‘liq. Buxoro shahrida mehmonxonalar, oilaviy mehmon uylari, transport xizmatlari, restoran va kafe tarmoqlarining kengayib borayotgani turizmni rivojlantirishga xizmat qilmoqda. Aeroport va temiryo‘l infratuzilmasining takomillashuvi, ichki transport qulayliklari sayyohlar oqimini oshirishda muhim omil hisoblanadi.

**Iqtisodiy omillar** - Turizm sohasi hudud iqtisodiyotiga katta daromad keltiradi. Buxoro vohasida turistik xizmatlar bozorining rivojlanishi kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning faollashuviga, yangi ish o‘rinlarining yaratilishiga sabab bo‘lmoqda. Milliy hunarmandchilik mahsulotlari, suvenirler, xizmat ko‘rsatish sohasi iqtisodiy jihatdan barqarorlikni ta’minlaydi.

**Kadrlar va xizmat sifati omillari** - Turistik xizmatlar bozorida raqobatbardoshlikni ta’minlash uchun malakali kadrlar muhim ahamiyatga ega. Gid-tarjimonlar, mehmonxona xodimlari, turoperatorlar va xizmat ko‘rsatuvchi mutaxassislarning kasbiy mahoratini oshirish xizmat sifati yaxshilanishiga olib keladi. Ta’lim muassasalarida turizm yo‘nalishida mutaxassislar tayyorlash ushbu bozorning barqaror rivojlanishini ta’minlaydi.

**Axborot va reklama omillari** - Zamonaviy axborot texnologiyalari turizm bozorida muhim rol o'ynaydi. Internet saytlar, ijtimoiy tarmoqlar, onlayn bron qilish tizimlari orqali Buxoro viloyatining turistik imkoniyatlarini keng targ'ib etish mumkin. Samarali reklama va marketing strategiyalari xorijiy va mahalliy sayyohlar sonining oshishiga xizmat qiladi.

O'zbekistonning cho'l zonasi, aniqrog'i Buxoro viloyatida ekologik turizm bozorini rivojlantirishning istiqbolli hududlaridan biri bo'lib, Buxoro shahridan 140-160 km uzoqlikda, bepoyon Qizilqum cho'li bag'rida joylashgan Quljuqtov tizmasidir. Quljuqtov tizmasi yuqoridan qaraganda yerga cho'kib yotgan ikki o'rkachli tuyani eslatadi va past tog'lar toifasiga kiradi. Uning eng baland nuqtalari –g'arbiy qismida 785, sharqiy chekkasida (Bosh Gujumdi) 773 metr mutlaq balandlikka ega. Tog'ning markaziy qismining kengligi 25-35 km gacha cho'zilgan. Maydoni ming kvadrat km atrofida. Tizma geologik jihatdan juda murakkab tektonik, minerologik tuzilishga ega. Tog' jinslarida devon va toshko'mir davrining qumtosh, slanets, ohaktosh hamda biotitli granitlar yetakchilik qiladi. Tog' etaklarida esa mezozoy davrining turli rangli gilli yotqiziqlari o'ziga xos manzaraga ega. Tizma yonbag'irlari esa har 2-3 km masofada bir-biriga parallel bo'lgan 100 ga yaqin yirik soy vodiylari bilan qirrilgan va turli shakldagi relyef ajoyibotlarni hosil qilgan. Bundan tashqari Churuq, Jing'ildi, Uchquduq, Oyoqog'itma kabi aholi manzilgohlari (aullar) hamda 20 dan ortiq chorva quduqlari, qo'shlar va ular bilan bog'liq infratuzilmalar yaratilgan. Ayni davrda tizma hududida tuyalar va o'n ming boshdan ortiq echki, qorako'l qo'ylari boqilmoqda. Churuq qishlog'i yaqinida, Oyoqog'itma qudug'i etagida O'zbekiston FA Botanika institutining "Qizilqum cho'l stantsiyasi" 1959 yildan buyon faoliyat ko'rsatib kelmoqda. Mazkur ilmiy markaz huzurida 5 gektar maydonda cho'l va madaniy o'simliklardan iborat bog' tashkil qilingan. Ekoturistlarni Churuq qishlog'iga kirish oldida yonma-yon qad ko'tarib turgan erozion supasimon baland (25-30 metr) tepalar hamda soy vodiysini o'rab turgan "o'rkachsimon" sarg'ish gilli qirlar e'tiborsiz qoldirmaydi. Churuq qishlog'ida 30 ga yaqin xo'jalik joylashgan bo'lib, 200 ga yaqin aholi istiqomat

qiladi. Qishloq tuman markazidan 70 km shimolda joylashgan. Uning tub aholisi qozoqlardir. Yana bir rekreatsion maskanlardan biri Buxoro viloyati Oyoqog'itma qishlog'i yaqinidagi "Og'utma" ko'lidir. Og'utma ko'li 1985-1986-yillarda Shimoliy Shofirkon zovuri orqali keladigan oqava suvlar hamda bahor va qish fasllaridagi yog'ingarchiliklar hisobidan hosil bo'lgan. Hozirda Og'utma ko'li atrofida kichik dam olish uylari, plyaj zonalari tashkil qilingan bo'lib, u yerga asosan tub aholi va viloyatning qolgan tumanlaridan odamlar boradi. Lekin bu juda past ko'rsatkich bo'lib, ko'ldagi infratuzilmani xalqaro standartlarga javob beradigan darajaga olib chiqib, turistik kompleks yaratish kerak. Shu o'rinda shuni aytib o'tish joizki, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 19-maydagi "2017-2019-yillarda Buxoro viloyati va Buxoro shahrining turistik salohiyatini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2980-sonli qarorlari e'lon qilindi. Mazkur qarorga ko'ra 2018 yilning noyabr oyiga qadar Og'utma ko'li atrofida infratuzilmani rivojlantirib, u yerda sog'lomlashtirish turizmi, ov turizmni va sport turizmini rivojlantirish ko'zda tutilgan.

Xulosa qilib aytganda, Buxoro vohasida turistik xizmatlar bozorini rivojlantirish ko'plab omillar majmuasiga bog'liq. Boy tarixiy-madaniy meros, davlat qo'llab-quvvatlovi, rivojlanayotgan infratuzilma, iqtisodiy imkoniyatlar, malakali kadrlar va zamonaviy axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish ushbu hududda turizmning barqaror rivojlanishini ta'minlaydi. Ushbu omillarni uyg'unlashtirish orqali Buxoro vohasi nafaqat O'zbekiston, balki Markaziy Osiyodagi yetakchi turistik markazlardan biriga aylanishi mumkin.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 28 sentyabrdagi "2022-2026 yillarda Buxoro viloyatida turizm sohasini yanada rivojlantirish chora tadbirlari to'g'risida"gi 543-sonli Qarori.
2. Bakaev Z.T. Ichki va kiruvchi turizmni rivojlantirishning tashkiliy iqtisodiy mexanizmi Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan avtoreferat. Toshkent – 2021

3. Xasanova G.D. O'zbekistonda turizmning rivojlantirilishi (Buxoro viloyati misolida). "Xalqaro va ichki turizmni rivojlantirish muammolari". Respublika ilmiyamaliy anjuman. Samarqand. 2016. 204-208 b